

SIMMENTAL ZOTLI O'SISHDAN ORTDA QOLGAN BUQACHALARNI BOQISH TEXNOLOGIYASI

Xidirov Karim Imomnazarovich, Ruziev Raxmonqul Istamovich

Quyunchioik seleksiyasi va geniteka markazi

Annotatsiya: Maqolada tajribadagi o'sishdan ortda qolgan simmental zotli buqachalarni bo'rdoqilash 15 oylik yoshidan 18 yoshiga qadar davrida I-guruh buqachalariga o'rtacha 8,4 kg ozuqa birligi, 116,5 Mj almashinuvchi energiya, 13,12 kg quruq modda, 1154 g hazmlanuvchi protein, 82,4 g Ca, 73,7 g P tashkil etuvchi ratsion bilan, tengqurlari II-guruh buqachalari ozuqa tuymligi bo'yicha I-guruh nazorat guruhiga nisbatan 12,5%, 14% Mj almashinuvchi energiya, 18% quruq modda, 8% Ca, P 3,6%-ga ortiqcha bo'lgan bo'lsa, tengqurlari III guruh tajriba guruhi buqachalari I-guruh nazorat guruhi buqachalariiga nisbatan 22,5% oziqa birligi, 5,4% Mj almashinuvchi energiya, 19,9% quruq modda, 7,9% hazmlanuvchi protein ortiqcha bo'ldi.

Kalit so'zlar: me'yor, ratsioni to'yimlilik, tirik vazn, o'sishda ortda qolgan, buqachalar kompensatsion o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligi.

Abstract: In the article, fattening of Simmental breed bulls, which lag behind the growth of the experiment, from 15 months to 18 years of age, group I bulls received an average of 8.4 kg of feed units, 116.5 MDj of exchangeable energy, 13.12 kg of dry matter, 1154 g of digestible protein, 82.4 g Ca, with a ration of 73.7 g P, compared to the control group I, the bulls of the second group had 12.5%, 14% MDj exchangeable energy, 18% dry matter, 8% Ca, P 3, If there was an excess of 6%, the bulls of the experimental group III compared to the bulls of the control group I had 22.5% food units, 5.4% MDj exchangeable energy, 19.9% dry matter, 7.9% digestible protein. it was too much.

Kirish

Boqimdagi chorva mollarni tirik vaznini oshirish qoramol bosh sonini tejash, mehnat va ozuqa xarajatlarini kamaytirish, go'sht sifatini yaxshilash, teri xomashyosini ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik hayvonlari mahsulotlarini yetishtirishda tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish, rentabelligini oshirish imkonini beradi.

Buqachalarning kompensatsion o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligiga intensiv o'sishning ta'sirini bilish va simmental zotli buqachalarning go'sht mahsuldorligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari organizmning ma'lum bir dastur bo'yicha rivojlanishini boshqarishga imkon beradi, bu nafaqat hayvonlarning go'sht mahsuldorligi samaradorligini oshirishga, balki sifatli go'sht mahsulotini yetishtirishda, go'shtning ozuqaviy qiymatini yaxshilashga imkon beradi va tadqiqot mavzusining dolbzarligini belgilaydi.

Tadqiqotlarning maqsadi

Qiloq xo'jaligi hayvonlari maxsuloti yetishtirishda texamkor texnologiyalardan foydalanib sanoat asosida boqilayotgan simmental zotli buqachalarni go'shtga boqishda zot andozasidan 15-30% o'sishda ortda qolgan buqachalarning ratsioni to'yimlilikini tirik vaznga nisbatan 10-25% oshirish orqali buqachalarni tirik vaznini kompensatsiya qilish,

Chorvachilikda hayvonlaridan ko'zlangan mahsuldorlikka erishishda ularni to'la qiymatli oziqlantirishni ta'minlash muhim o'ringa ega.

Olingan natijalar va munozaralar

Tajribada Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida joylashgan "INZIM-TEX" sanoat asosida qurilgan O'zbekiston-Britaniya qushma korxonasiga qarashli zamonaviy ekish, urish, tarqatish texnikalariga ega bo'lgan xujalikda tajriba ishlari utkazildi. Xo'jalikda 300 bosh simmental va 180 bosh golshtin zotli sigirlar va 350 bosh sut yuralishidagi sudor echkilar mavjud bulib 250 ga maydonga chorvachilik mollarini oziqlantirish uchun oziqa ekinlari yetishtiriladi.

Tajribadagi barcha simmental zotli bo'qachalar BCHITI me'yorlari asosila I – guruh simmental buqachalarini boqish me'yorlari asosida, II- guruh simmental buqachalariga oziqlantirish ratsioni to'yimliliigi, tirik vazniga talab etiladigan oziqlantirish me'yoriga nisbatan 10-15%, III- guruh buqachalariga esa oziqlantirish ratsioni to'yimliliigi darajasi tirik vazniga talab etiladigan oziqlantirish me'yoriga nisbatan 20-25%-ga oshirish orqali oziqlantirish ratsioni britaniya mutaxasislari hamkorligida tuzildi.

Tajriba uchun buqachalar zotiga, yoshiga, trik vazniga qarab buqachalarini guruhlariga ajratib, oziqlantirish ratsioni tuzildi. Tajribadagi simmental zotli buqachalarning 7 oylik shidan 9 oylik yoshiga qadar ozuqalarni eyish darajasiga qarab ozuqa ratsioni tarkibi to'yimliliigi zt andozasidan II va III guruh o'sishdan ortda qolgan buqachalarga oshirilib borildi.

Tajribadagi simmental zotli buqachalarnig 10 oylik yoshidan 12 oylik yoshiga qadar I-nazorat guruhi buqachalariga o'rtacha 5,87 kg ozuqa birligi, 79,0 Mj almshinuvchi energiya, 7,7 kg quruq modda, 553 g hazmlanuvchi protein, 69,3 g Ca, 38 g P tashkil etuvchi ratsion asosida oziqlantirilgan bo'lsa, II-tajriba guruhi buqachalariga oziqlantirish ratsioni to'yimliliigi tirik vazniga nisbatan talab etiladigan oziqlantirish me'yoriga nisbatan 10-15%-ga oshirilib 6,72 kg ozuqa birligini tashkilgan ratsion asosida oziqlantirish ratsioni tarkibida nazorat guruhiga nisbatan 14,5%-ga, Mj almashinuvchi energiya 2,8%, quruq modda 9,7%, hazmlanuvchi protein 9,5%, Ca 9,67%, P 2,6 5-ga ortiqcha bo'ldi.

Tajribadagi zot andozasidan ortda qolgan simmental zotli III guruh buqachalariga oziqlantirish ratsioni to'yimliliigi darajasini tirik vazniga nisbatan oziqlantirish me'yoriga nisbatan 20-25%-ga oshirish orqali 6,89 kg ozuqa birligini tashkil qilib, I-guruh simmental buqachalariga nisbatan 19,4%, Mj almashinuvchi energiya 16,2%, quruq modda 15,8%, hazmlanuvchi protein 14,0%, Ca 19%, P 7,8%-ga ozuqa ratsioni to'yimliliigi I-nazorat gurihiga nisbatan ortiqcha bo'lgan ratsion asosida oziqlantirildi.



Simmental zotiga mansub buqachalarning 13oylik yoshidan 15 oylik yoshiga qadar tajribadagi I-guruh simmental zotli buqachalariga o'rtacha 6,97 kg ozuqa birligi, 108,2 Mj almashinuvchi energiya 11,67 kg quruq modda, 796 g hazmlanuvchi protein, 75,3 g Ca, 67 g P tashkil etuvchi ratsion bilan oziqlantirilgan bo'lsa, II- tajriba guruhi buqachalariga oziqlantirish ratsioni to'yimlilikini, 7,78 kg ozuqa birligiga oshirilib tengqurlari I guruhga nisbatan 11,6%-ga, Mj almashinuvchi energiya 2,8%, quruq modda 1,7%, hazmlanuvchi protein 3,9%, Ca 7,2%, P 3,4%-ga ortiqcha bo'ldi. III guruh buqachalariga oziqlantirish ratsioni to'yimlilik darajasini tirik vazni me'yor talabiga nisbatan 16% oshirish orqali 8,08 kg ozuqa birligi, tengqurlari I-guruhga nisbatan 9,1%, Mj almashinuvchi energiya, 9,5% quruq modda, 9,7%, hazmlanuvchi protein 22,9%, Ca 10,5%, P 5,9%-ga ortiqcha bo'lgan ratsion asosida oziqlantirildi.

Tajribadagi o'sishdan ortda qolgan simmental zotli buqachalarni bo'rdoqilash 15 oylik yoshidan 18 yoshiga qadar davrida I-guruh buqachalariga o'rtacha 8,4 kg ozuqa birligi, 116,5 Mj almashinuvchi energiya, 13,12 kg quruq modda, 1154 g hazmlanuvchi protein, 82,4 g Ca, 73,7 g P tashkil etuvchi ratsion bilan, tengqurlari II-guruh buqachalari ozuqa tuymligi bo'yicha I-guruh nazorat guruhiga nisbatan 12,5%, 14% Mj almashinuvchi energiya, 18% quruq modda, 8% Ca, P 3,6%-ga ortiqcha bo'lgan bo'lsa, tengqurlari III-guruh tajriba guruhi buqachalari I-guruh nazorat guruhi buqachalariga nisbatan 22,5% oziqa birligi, 5,4% Mj almashinuvchi energiya, 19,9% quruq modda, 7,9% hazmlanuvchi protein ortiqcha bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, go'sht mahsuloti yetishtirishda barcha tajriba guruhidagi simmental zotli buqachalarga o'sish, rivojlanish hamda bo'rdoqilash davrlari kesimida oziqlantirish ratsioni me'yor darajasida tirik vaznini etborga olgan holda talab etiladigan ratsion to'yimlilikiga nisbatan II-guruhda 10-15%, III-guruh buqachalariga esa 20-25%-ga oshirilgan tarzda ratsionlar tuzildi va va davrlar kesimida oziqlantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sirotinin, /V. I. N. M. Rostovseva, V. A. Lukyanova//Myasnaya produktivnost simmentalskogo skota raznykh genotipov/ Sozdanie novykh porod i tipov jivotnykh//Sozdanie novykh porod i tipov jivotnykh v Sibiri. Sbornik nauchnykh trudov. Krasnoyarsk, 2001. – S. 14-17, 87.

2. Burkat V.P., Makarenko N.P., Marchenko A.N. Dinamika rosta i uboynye kachestva bychkov simmentalskoy породы pri chistoporodnom razvedenii i skreščivanii // Vestnik s.-x. nauki.-1984.- №1.- s. 123-128.

3. Bulishev R. Myasnaya produktivnost i kachestvo myasa bychkov shvitskoy породы, выращенных на полнорационных кормосмесях. Dis.kand. s.-x.nauk. Tashkent, 1990 g., s. 35-70.